


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Dastlabki ma'lumotlar

Respublika bo'yicha 2022-yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **603,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **14,3%** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **55,6** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **2,2m**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **547,6** mlrd. so'mni (**9,0 %** ga o'sdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **67,1** mlrd. so'mni (**9,3 %** ga o'sdi) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda



11,1%




Uyushmagan savdo, mlrd. so'm



HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **603,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **114,3 %** ni tashkil etdi.



Respublikamiz chakana savdo tovar aylanmasida Nukus shahri va tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **90,8%** va yirik korxonalar hissasiga **9,2 %** to'g'ri keldi.

Nukus sh.
161,0

Xo'jayli
49,7

Qo'ng'iroq
42,7

Amudaryo
44,1

Qonliko'l
19,6

Taxiatosh
15,6

Nukus
14,3

Mo'ynoq
5,7

ENG YUQORI ULUSH

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Nukus shahri **26,7 %** ulush bilan **161,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

ENG QUYI ULUSH

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quiyi ulushni Mo'ynoq tumanı **0,9 %** ulush bilan **5,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2022- yil yanvar



Nukus shahri Amudaryo Beruniy Bo'zatov Qonliko'l Qorao'zak Kegeyli Qo'ng'iroq Mo'ynoq Nukus Taxiatosh Taxtako'pir To'rtko'l Xo'jayli Chimboy Shumanay Ellikqal'a



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar oyi yakuniga ko'ra, **547,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **109,0 %** ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **90,8%** ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Qorao'zak (99,8 %), Kegeyli (99,6 %), Qonliko'l (99,6 %), Mo'ynoq (99,6 %), Taxtako'pir (99,6 %), Bo'zatov (99,6 %), Nukus (99,4 %) va Shumanay tumanlarida (99,4 %) yuqori bo'lgan.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI**



2022- yilning yanvar oyida nisbatan respublikaning Bo'zatov tumanidan tashqari barcha tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining sur'atlari kuzatilib, nisbatan To'rtko'l (111,7%), Xo'jayli (111,3%), Qonliko'l (111,3%), Kegeyli (111,1%) va Shumanay (110,0 %), tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	603,2	114,3	55,6	217,7	547,6	109,0
Nukus shahri	161,0	127,4	42,7	382,9	118,3	102,7
tumanlar:						
Amudaryo	44,1	109,3	1,9	79,3	42,2	111,1
Beruniy	49,8	109,4	1,9	105,8	47,8	109,6
Bo'zatov	6,2	109,4	0,0	51,7	6,2	109,8
Qonliko'l	19,6	111,3	0,1	228,9	19,5	111,1
Qorao'zak	26,2	109,5	0,1	40,0	26,2	109,9
Kegeyli	22,7	111,1	0,1	116,4	22,6	111,1
Qo'ng'irot	42,7	109,1	2,1	86,9	40,6	110,5
Mo'ynoq	5,7	109,4	0,0	63,9	5,7	109,7
Nukus	14,3	109,3	0,1	80,1	14,2	109,5
Taxiatosh	15,6	109,0	1,1	56,4	14,6	117,2
Taxtako'pir	17,9	109,9	0,1	79,7	17,8	110,1
To'rtko'l	58,3	111,7	2,3	92,3	55,9	112,7
Xo'jayli	49,7	111,3	1,2	122,9	48,4	111,0
Chimboy	25,7	109,9	0,9	114,5	24,9	109,8
Shumanay	12,3	110,0	0,1	91,5	12,2	110,1
Ellikqal'a	31,4	109,9	1,0	102,5	30,4	110,1

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar oyida nisbatan **217,7%** ni va **55,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **9,2%** ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblariga ko'ra, **547,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar oyida nisbatan **9,0%** ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **90,8%** ni tashkil etdi.


CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)

Nukus sh.	26,5	73,5
Ellikqal'a	3,3	96,7
Shumanay	0,6	99,4
Chimboy	3,3	96,7
Xo'jayli	2,5	97,5
To'rtko'l	4,0	96,0
Taxtako'pir	0,4	99,6
Taxiatosh	7,0	93,0
Nukus	0,6	99,4
Mo'ynoq	0,4	99,6
Qo'ng'irot	4,9	95,1
Kegeyli	0,4	99,6
Qorao'zak	0,2	99,8
Qonliko'l	0,4	99,6
Bo'zatov	0,4	99,6
Beruniy	3,9	96,1
Amudaryo	4,3	95,7

■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorao'zak (99,8 %), Kegeyli (99,6 %), Qonliko'l (99,6 %) va Mo'ynoq (99,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 9,8% ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (26,5%), Taxiatosh tumanida(7,0%), Qo'ng'irot (4,9%) va Amudaryo (4,3 %) tumanlarida kuzatildi.



2022- yilning yanvar oyi holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **311,6** ming so'm (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan 12,8 % ga o'sdi), Nukus shahri, To'rtko'l , Beruniy, Taxtako'pir, Shumanay, Qorao'zak, Chimboy va Ellikqal'a tumanlari aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi yuqori ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatkichlarni tumanlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Nukus shahri (493,1 ming so'm), Xo'jayli (397,7 ming so'm), tumanlari va Qorao'zak (490,8 ming so'm) hissasiga to'g'ri keladi.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI BO'YICHA AHOLO JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda



Oʼsish (oʼzgarish) surʼatlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Uyushmagan savdo

67,1 mlrd. soʼm, 100 %


Dehqon bozorlari

37,9 mlrd. soʼm, 56,5%

Chorva bozorlari

29,2 mlrd. soʼm, 43,5 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar oyida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **37,9** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **29,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagи tadbirkorlar (YTT)ni qо'shмаган holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2022- yil yanvar

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	67,1	109,3	37,9	140,3	29,2	84,9
Nukus shahri	6,8	147,1	6,1	297,6	4,8	182,3
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	3,6	118,1	1,8	130,9	1,9	108,0
Beruniy	5,3	102,2	1,9	81,3	3,4	118,6
Bo'zatov	1,6	68,9	1,0	98,9	0,3	22,0
Qonliko'l	3,1	90,2	1,0	65,8	2,1	109,5
Qorao'zak	6,0	99,4	1,0	38,9	1,0	28,7
Kegeyli	6,4	92,3	1,6	53,6	1,7	43,0
Qo'ng'irot	3,9	90,1	1,3	69,5	1,9	77,7
Mo'ynoq	0,8	98,6	1,0	277,4	0,0	0,0
Nukus	2,5	80,2	1,3	93,1	1,2	70,0
Taxiatosh	1,8	161,6	3,6	708,9	0,3	44,7
Taxtako'pir	2,9	98,7	1,1	83,3	0,9	56,8
To'rtko'l	9,3	159,4	5,0	195,4	4,3	131,1
Xo'jayli	4,7	120,8	6,0	348,2	0,7	33,2
Chimboy	3,8	85,8	1,9	96,2	1,7	69,4
Shumanay	2,2	159,8	1,0	164,8	1,2	155,9
Ellikqal'a	2,1	120,3	1,3	169,4	1,8	181,6

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



Tuzlamalar

1,5
mlrd. so'm



Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari

19,2
mlrd. so'm



1,7
mlrd. so'm

Quritilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

4,6
mlrd. so'm



Non va non
mahsulotlari



1,5
mlrd. so'm

1,4
mlrd. so'm



Sut va sut
mahsulotlari

Tuxum

2,7
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

1,1
mlrd. so'm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar

1,6
mlrd.
so'm



Ziravorlar

1,5
mlrd.
so'm



Tovuq go'shti



1,0
mlrd. so'm

Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

2022- yilning yanvar oyida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **37,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**19,2** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2022- yilning yanvar oyida respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **29,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **22,2** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **6,0** mlrd. so'mni, otlar **0,7** mlrd. so'mni, parrandalar **0,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:




UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA
YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2022- yil yanvar

2022- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,4 %** ni tashkil etib, **14,4 mlrd. so'mga** yetdi va 2021-yil yanvar oyida nisbatan **99,8%** ni tashkil etdi.. Bunda jami savdo aylanmasining **86,7%** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyida nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyida nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyida nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	14,4	99,8	0,7	66,3	13,7	102,3
Nukus shahri	5,5	97,9	0,0		5,4	97,1
tumanlar:						
Amudaryo	0,6	109,6	-		0,6	109,6
Beruniy	0,4	106,7	-		0,4	106,7
Bo'zatov	0,0	107,1	-		0,0	107,1
Qonliko'l	0,2	108,7	-		0,2	108,7
Qorao'zak	0,4	102,0	-		0,4	102,0
Kegeyli	0,2	111,6	-		0,2	111,6
Qo'ng'irot	4,0	94,5	0,6	61,9	3,3	104,7
Mo'ynoq	0,1	106,2	-		0,1	106,2
Nukus	0,1	106,4	-		0,1	106,4
Taxiatosh	0,3	101,8	-		0,3	101,8
Taxtako'pir	0,1	118,6	-		0,1	118,6
To'rtko'l	0,9	106,6	-		0,9	106,6
Xo'jayli	0,8	109,1	-		0,8	109,1
Chimboy	0,4	104,2	-		0,4	104,2
Shumanay	0,1	107,3	-		0,1	107,3
Ellikqal'a	0,4	107,4	-		0,4	107,4

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2021- yil yanvar



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi **14,4** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 99,8%) va mulkchilik shakllari bo'yicha **14,4** mlrd. so'm nodavlat mulkka (100,0 %) to'g'ri keldi.

2022- yil yanvar

	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	14 410,3	100,0	14 410,3	100,0	-	-
Nukus shahri	5 467,8	37,9	5 467,8	100,0	-	-
tumanlar:						
Amudaryo	647,7	4,5	647,7	100,0	-	-
Beruniy	425,1	2,9	425,1	100,0	-	-
Bo'zatov	36,5	0,3	36,5	100,0	-	-
Qonliko'l	175,9	1,2	175,9	100,0	-	-
Qorao'zak	374,5	2,6	374,5	100,0	-	-
Kegeyli	161,2	1,1	161,2	100,0	-	-
Qo'ng'irot	3 967,3	27,5	3 967,3	100,0	-	-
Mo'yinoq	55,2	0,4	55,2	100,0	-	-
Nukus	128,3	0,9	128,3	100,0	-	-
Taxiatosh	336,5	2,3	336,5	100,0	-	-
Taxtako'pir	102,7	0,7	102,7	100,0	-	-
To'rtko'l	891,0	6,2	891,0	100,0	-	-
Xo'jayli	828,3	5,7	828,3	100,0	-	-
Chimboy	388,6	2,7	388,6	100,0	-	-
Shumanay	68,3	0,5	68,3	100,0	-	-
Ellikqal'a	355,3	2,5	355,3	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Respublika bo'yicha 2022-yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **102,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar oyiga nisbatan **4,1%** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **17,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **66,1%**), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **85,0** mlrd. so'mni (**5,7 %** ga o'sdi) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar




ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariiga ega yirik korxonalar Amudaryo (295,5 %) Taxiatush (99,4%), Nukus shahrida (35,5%) kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Nukus (157,1%), Ellikqal'a (133,3 %), va Chimboy (114,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'zgarish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyida nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyida nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyida nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	102,5	95,9	17,5	66,1	85,0	105,7
Nukus shahri	47,6	87,5	4,9	35,5	42,7	105,2
tumanlar:						
Amudaryo	1,8	65,1	0,1	295,5	1,8	63,4
Beruniy	6,8	104,8	-		6,8	104,8
Bo'zatov	0,2	114,1	-		0,2	114,1
Qonliko'l	2,0	104,0	-		2,0	104,0
Qorao'zak	1,2	57,6	-		1,2	57,6
Kegeyli	0,1	102,8	-		0,1	102,8
Qo'ng'irot	3,5	102,3	-		3,5	102,3
Mo'ynoq	0,3	21,7	-		0,3	21,7
Nukus	7,4	157,1	-		7,4	157,1
Taxiatush	14,6	100,0	12,5	99,4	2,1	103,6
Taxtako'pir	1,0	112,7	-		1,0	112,7
To'rtko'l	6,9	106,8	-		6,9	106,8
Xo'jayli	1,7	101,2	-		1,7	101,2
Chimboy	1,9	114,6	-		1,9	114,9
Shumanay	0,0	102,1	-		0,0	104,0
Ellikqal'a	5,4	133,3	-		5,4	133,3

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



RK Nukus shahri Amudaryo Beruniy Bo'zatov Qonliko'l Qorao'zak Kegeyli Qo'ng'irot Mo'ynoq Nukus Taxiatosh Taxtako'pir To'rtko'l Xo'jayli Chimboy Shumanay Ellikqal'a


Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022-yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, **85,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar oyiga nisbatan **105,7 %** ni tashkil etdi. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **83,0 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Beruniy, Bo'zatov, Qorao'zak, Kegeyli, Qo'ng'irot, Qonliko'l va Ellikqal'a tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Taxiatosh (14,6%) tumaniga to'g'ri keldi.



MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

So'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'rni pasayib bormoqda. 2022- yilning yanvar oyi yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **102,5** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **102,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.